

# **O'zDSMIda tadqiqotchi Barno Nurmanovanning san'atshunoslik fanlari bo'yicha dissertatsiya himoyasi bo'lib o'tdi**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida tadqiqotchi Barno Nurmanovanning «Zamonaviy o'zbek teatrida sahnaviy obraz yaratish masalalari» mavzusida san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya himoyasi bo'lib o'tdi.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati to'g'risida so'z yuritar ekan, jahon madaniy jarayonlarida teatr san'atining o'rnini, xalqaro integratsion aloqalar va ijtimoiy-mafkuraviy munosabatlarni mustahkamlashdagi ahamiyati tobora ortib borayotganligi ta'kidlandi.

Dissertatsiyada dunyo sahna san'atida yuzaga kelayotgan yangi tendensiyalar, modernizm yo'nalishidagi oqimlar va uslubiy ifodaviy eksperimentlar teatrning ijodiy va badiiy-estetik ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilishi haqidagi fikrlar keltirildi. Shuningdek, jahon teatrlari dramaturgiya, rejissura, aktyorlik san'ati va boshqa komponentlarning badiiy yaxlitligini ta'minlashga intilayotgani va to'laqonli sahnaviy obraz yaratish yo'lida ijodiy eksperimentlar o'tkazayotgani ta'kidlandi.

Ilmiy ish natijalari asosida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- dramatik teatrlarda namunali aktyorlik talqinini jamoatchilik oldida tahlil qilish an'anasini yaratish;
- ustoz-shogird an'analarini saqlab qolish maqsadida aktyorlik


va rejissorlik yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarni teatrlardagi ijodkorlar bilan bog'laydigan tizimni yo'lga qo'yish;

– O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti teatr san'ati fakultetidagi professor-o'qituvchilar va talabalarning xorijiy san'at ta'limi muassasalari bilan masofadan turib hamkorlik qilish tizimini ishlab chiqish;

– aktyorning sahnaviy obraz yaratishiga yordam beradigan ilmiy adabiyotlar va tarixiy shaxslarning sahnaviy obrazlari muhrlangan filmlarni tahliliy o'rganish amaliyotini aktyorlik va rejissorlik darslarida joriy qilish va boshqalar.

Muhokamaga ko'ra, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzuridagi Ilmiy kengashning deyarli barcha a'zolari dissertatsiyani bir ovozdan yoqlab ovoz berishdi.







---

## **Oliy attestatsiya komissiyasi raisi ishtirokida O'zDSMI doktorantlari va tadqiqotchilari bilan davra suhbatlari o'tkazildi**

Doktorantlar va tadqiqotchilar ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular tomonidan olib borilayotgan izlanishlar hamda erishilayotgan natijalar jamiyatni yangi bilimlar bilan boyitadi, fan va texnologiya taraqqiyotini tezlashtiradi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi raisi Ahmadbek Yusupovning O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida doktorantlar va tadqiqotchilar hamda yetakchi professor-o'qituvchilar bilan muloqoti o'tkazildi.

Ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan ushbu uchrashuv davomida uzluksiz ta'lim tizimining oliy ta'limdan keyingi bosqichida dissertatsiya himoyalarni qanday shakllantirish kerakligi haqida so'z yuritildi. Shuningdek, bu jarayonda duch kelinadigan to'siqlar va muammolar, OAK nizomi bo'yicha tadqiqotchilarga taqdim etilayotgan yengilliklar va

imkoniyatlar haqida ham batafsil ma'lumot berildi.

Davra suhbatida institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev ham ishtirok etib, doktorantlar va tadqiqotchilarning ilmiy faoliyati uchun barcha shart-sharoitlar yaratilishini ta'kidladi.

Yig'ilishda ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashda san'at va madaniyat sohasida ilmiy daraja berish tartibi hamda tadqiqotchilarning xorijiy mamlakatlarda amaliyot o'tashi masalalari ham muhokama qilindi.

Bundan tashqari, ilmiy yangiliklarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, ijodiy ishlarni ilmiy ishga tenglashtirish kabi muhim jihatlar, shuningdek, ilmiy loyihalarni tijoratlashirish, plagiat materiallarga qarshi kurashish va ilmiy unvon sohiblarining monitoring qilish masalalari yuzasidan yo'llangan savollarga atroflicha javob berildi.

Uchrashuvda doktorantlar va tadqiqotchilar ilmiy izlanishlarini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yo'l-yo'riqlar va tavsiyalarga ega bo'ldi. Mutaxassis tomonidan berilgan ma'lumotlar ularga duch keladigan muammolarni hal qilishda va izlanishlarni yanada samarali olib borishda yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, fan va ta'lim tizimining rivojlanishiga, ilmiy salohiyatning yuksalishiga xizmat qiladi.







---

## **O‘zDSMIda Ozarbayjon madaniyat kunlari doirasida bir qator tadbirlar o‘tkazildi**

So‘nggi yillarda O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi do‘stona munosabatlar sezilarli darajada rivojlanmoqda. Ikki mamlakat o‘rtasidagi yaqin aloqalar nafaqat siyosiy, balki madaniy va ijtimoiy sohalarda ham mustahkam ko‘rinishga ega bo‘lmoqda.

Buning yorqin namunasi o‘laroq, joriy yilning 9–14-iyun

kunlari O'zbekistonda Ozarbayjon madaniyat kunlari tashkil etilmoqda. Haftalik doirasida ko'plab madaniy tadbirlar rejalashtirilgan bo'lib, ular ikki davlat o'rtasidagi madaniy hamkorlikni yanada kengaytirishga qaratilgan.

Jumladan, 12-iyun kuni Ozarbayjonning bir guruh ijodkor vakillaridan iborat delegatsiya O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga tashrif buyurdi. Tashrif doirasida Ozarbayjonning mashhur Yug' teatr studiyasi tomonidan taniqli yozuvchi va dramaturg Ilg'or Fahmiy pyesasi asosida sahnalashtirilgan «Men bu... menman» spektakli namoyish etildi.

Spektakl ijodiy jamoasi tomoshabinlarni bir yarim soat davomida XIV asrda yashab, ijod qilgan buyuk ozarbayjon shoiri, faylasufi va mutafakkiri Imodiddin Nasimiyning hayot tarzi, falsafasi, haqiqatgo'yligi va muhabbati bilan tanishtirdi.

Shuningdek, spektakldan so'ng institut rektori va Ozarbayjon Respublikasi Madaniyat vazirligi mas'ul xodimlarining muloqoti ham bo'lib o'tdi.

Bundan tashqari, Ozarbayjon maqom markazi direktori Sahib Pashazade ham oliygohda bo'lib, O'zDSMI rektori, professor Nodirbek Sayfullayev va institut jamoasi bilan uchrashib, ikki qardosh xalq o'rtasidagi do'stona aloqalar haqida o'zining iliq fikrlarini bildirib o'tdi.

Uchrashuv davomida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti hamda Ozarbayjon maqom markazi o'rtasida hamkorlik memorandumini imzolandi. Memorandum ikki davlat san'atkorlari, professor-o'qituvchilari hamda talabalari o'rtasida tajriba almashish imkoniyati yaratiladi. Bu milliy madaniyat va san'atni yangi bosqichga olib chiqadi. Shuningdek, maqom san'ati bo'yicha qo'shma tadbirlar, konsertlar, seminarlar va mahorat darslari tashkil etiladi. Tadbirlar ikki mamlakat san'atkorlari o'rtasida yaqin aloqalarni o'rnatishga va yangi ijodiy g'oyalarni amalga oshirishga zamin yaratadi. Qolaversa,

san'at va madaniyat sohasidagi ta'lim muassasalari o'rtasida ilmiy tadqiqotlar, tajribalar va innovatsiyalar almashinuvi amalga oshiriladi. Bu esa ta'lim sifatini oshirishga va ilmiy izlanishlarning rivojlanishiga yordam beradi.

Shu bilan birga, Sahib Pashazadega O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining faxriy professori unvoni topshirildi. Mazkur unvon ikki mamlakat hamkorligining yorqin namunasi sifatida taqdim etildi.

Ozarbayjon madaniyat kunlari doirasida o'tkaziladigan tadbirlar ikki mamlakat o'rtasidagi madaniy va ijtimoiy aloqalarni yanada rivojlantirishga, xalqlar o'rtasidagi munosabatlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi hamda uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.







---

# **Cholg' u ijrochiligi ta'lim yo'nalishi talabalarining bitiruv malakaviy imtihoni o'tkazildi**

Kino, televideniye va radio san'ati fakulteti «Cholg' u ijrochiligi va musiqa nazariyasi» kafedrası Professional ta'lim: xalq ijodiyoti (cholg' u ijrochiligi) ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabalarining bitiruv malakaviy imtihoni o'tkazildi. Unda bitiruvchi talabalar mutaxassislik cholg' usi bo'yicha imtihonga tayyorlagan asarlarini ijro qildilar.

Imtihon jarayonida talabalar o'zlarining ijrochilik san'atida egallagan bilim va ko'nikmalarini ko'rsatishdi. Ular chang, nay, doira, dutor, qashqar rubobi, afg'on rubobi, rubob prima, dutor bas, g'ijjak kabi cholg' ularda o'z iqtidorlarini ko'rsatishdi.

Sinovlarni yuqori malakali professor-o'qituvchilar va sohaning tajribali mutaxassislari baholab borishdi. Ular talabalar ijrosini texnik mahorat, musiqiy ifoda, sahna madaniyati kabi mezonlar bo'yicha baholashdi. Har bir talabaning ijrosi sinchkovlik bilan tahlil qilinib, ularning kuchli va zaif tomonlariga e'tibor qaratildi. Imtihonda institut rektori,

professor Nodirbek Sayfullayev ham ishtirok etdi.

Bitiruv imtihonlari orqali talabalar o'zlarining ta'lim davomida olgan bilim va ko'nikmalarini amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llay olishlarini namoyish etishdi. Yakunda talabalar professor-o'qituvchilar va mutaxassislardan qimmatli maslahatlar va tavsiyalar olishdi. Bu esa ularning kelajakdagi ijodiy faoliyatlariga katta hissa qo'shishi shubhasiz.

Ushbu imtihonlar talabalarning ijodiy rivojlanishida muhim qadam bo'lib, ularning kelgusidagi faoliyati davomida mahoratini oshirishga xizmat qiladi.





---


# **O'zDSMI rektori oliygohning Nukus filialiga amalga oshirgan xizmat safari doirasida diplom spektakllari namoyishida ishtirok etdi**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev institutning Nukus filiali faoliyati bilan tanishish maqsadida xizmat safarini amalga oshirmoqda.

Professor Nodirbek Sayfullayev filial bitiruvchi talabalarining diplom spektakllari va yakuniy davlat imtihonlarini ham kuzatdi. Jumladan, «Ashula va raqs» va «Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish» ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining yakuniy davlat imtihonlari, Teatr san'ati fakulteti 4-bosqich talabalari ijrosidagi «Uyim» va «Yubiley» deb nomlangan spektakllar namoyishida ishtirok etdi.

Spektakl namoyishidan so'ng esa «Musiqali teatr rejissyorligi» ta'lim yo'nalishi talabalari bilan muloqot o'tkazilib, bitiruvchilarning tanlagan sohalari bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lib yetishishlari hamda kelgusidagi ijodiy faoliyatiga omad tilandi.





---


## **0‘zDSMI rektori oliygohning Nukus filiali faoliyati bilan tanishdi**

2024-yil 5-iyun kuni O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev oliygohning Nukus filialiga tashrif buyurib, filialda olib borilayotgan

ishlar, talabalarning ilm-fan va sport musobaqalarida erishgan yutuqlari bilan yaqindan tanishdi.

Safar doirasida Nukus filialida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar, madaniy va sport tadbirlari haqida batafsil ma'lumot berildi. Talabalar o'rtasida o'tkazilgan turli musobaqalar va tanlovlarda erishilgan natijalar, filialda yaratilgan sharoitlar va o'quv jarayonining samaradorligi o'rganildi. Bundan tashqari, filial rahbariyati va yetakchi professor-o'qituvchilar bilan muloqot qilindi.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasasi rahbari Nukusdagi yangi talabalar turar joyi qurilish jarayoni bilan tanishdi. Hozirda 300 o'ringa mo'ljallangan yotoqxonani barpo etish ishlari davom etmoqda. Nodirbek Sayfullayev bunyodkorlik ishlarining sifatli va qisqa fursatda yakunlanishi bo'yicha zarur choralarni ko'rish lozimligini ta'kidladi. Bu borada quruvchilar va mas'ul shaxslar bilan fikr almashildi. Xizmat safari davom etmoqda.







# **Adiblar xiyobonida “Vatan madhi qalblarda mangu” mavzusida hisobot konserti o‘tkazildi**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining topshirig‘i ijrosini ta‘minlash maqsadida Adiblar xiyobonida “Vatan madhi qalblarda mangu” mavzusidagi hisobot konserti bo‘lib o‘tdi. Ushbu tadbir O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti, O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi hamda Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti hamkorligida tashkil etildi.

Tadbirni Prezident Administratsiyasi mas‘ul xodimi Abduhalil Mavrulov, Madaniyat vaziri o‘rinbosari Murodjon Majidov, Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid hamda O‘zDSMI rektori Nodirbek Sayfullayev ochib berib, ushbu badiiy kecha milliy madaniyatimiz va adabiyotimizni yoshlarimizga yetkazishda muhim qadam bo‘lishini, atoqli adiblarimizning hayoti va ijodini yoshlarga tanitish, ularni milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalash oliygohning asosiy maqsadlaridan biri ekanligini ta‘kidladi. Shu bilan birga, Adiblar xiyobonini yoshlar uchun doimiy gavjum va fayzli maskanga aylantirish ularni milliy merosimiz bilan

tanishtirish hamda talabalarning ma'naviy olamini boyitishga xizmat qilishi aytib o'tildi.

Konsertning asosiy maqsadi atoqli adiblarimiz hayoti va ijodini yoshlar orasida keng targ'ib qilish, ularning merosini abadiylashtirish va xiyobonni yoshlar bilan doimiy gavjum bo'lgan maskanga aylantirishdan iborat. Badiiy kechada institut professor-o'qituvchilari, mashhur xonandalar va iqtidorli talabalar ishtirokida milliy kuy-qo'shiqlar ijro etildi. Shuningdek, O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf qalamiga mansub she'rlar o'qildi va turli sahna ko'rinishlari namoyish etildi.

Tadbir yoshlar uchun katta ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lib, ularga atoqli adiblarimizning boy merosini yanada yaqinroq tanitish imkonini berdi.

Hisobot konserti Adiblar xiyobonini yoshlar uchun ma'naviy va madaniy maskanga aylantirish yo'lida muhim qadam bo'ldi.







---

# **O‘zDSMIga Ozarbayjon Madaniyat vazirligi xodimlari tashrif buyurdi**

So‘nggi yillarda O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasida madaniy aloqalar sezilarli darajada rivojlanib bormoqda. Ushbu hamkorlikning yorqin namunasi sifatida joriy yilning may oyida Ozarbayjon Respublikasi poytaxti Boku shahrida o‘tkazilgan II Turk dunyosi talabalar teatr festivalida O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti talabalarining ishtirok etganligini aytish mumkin. Festivalda o‘zbekistonlik talabalar munosib qatnashgan holda, hakamlar hay‘ati va tomoshabinlar e‘tirofiga sazovor bo‘ldi.

Hamkorlik aloqalarining davomi o‘laroq, bugun O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutiga Ozarbayjon Madaniyat vazirligi hamda san‘at namoyondalaridan iborat delegatsiya tashrif buyurdi. Ozarbayjon Madaniyat vaziri maslahatchisi Oleg Amirbekov, vazirlik bo‘limi boshlig‘i Minzarxanim

Nuraliyeva, vazirlik sektori rahbari Aybeniz Aliyeva, Ozarbayjon Kino agentligi xodimi Aysel Muradova, kinorejissyor Ulviya Karimovadan iborat delegatsiya institut faoliyati va dars jarayonlarini bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Ular oliygoh o'quv teatri va anjumanlar zalini ko'zdan kechirishdi hamda talabalarning amaliy mashg'ulotlarida ishtirok etdilar.

Shuningdek, mehmonlar institut rahbariyati bilan uchrashib, madaniyat va san'at sohasidagi istiqbolli hamkorlik masalalari, jumladan, iyun oyida mamlakatimizda tashkil etiladigan Ozarbayjon madaniyat va san'at kunlarini o'tkazish masalalarini muhokama qildilar. Muloqot davomida ikki tomon o'rtasidagi madaniy aloqalarni yanada rivojlantirish, qo'shma loyihalar va dasturlarni amalga oshirish, san'at va madaniyat sohasida o'zaro tajriba almashish imkoniyatlari haqida fikr almashildi. Ozarbayjon Madaniyat vazirligi xodimlari O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ta'lim jarayonlari va talabalarning ijodiy ishlariga yuqori baho berishdi.

Mazkur tashrif O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi madaniy aloqalarni yanada mustahkamlashga va yangi qo'shma loyihalar yaratishga katta turtki beradi. Hamkorlik san'at va madaniyat sohasidagi innovatsiyalarni rivojlantirish va ikki mamlakat yoshlariga yangi imkoniyatlar ochishda muhim ahamiyat kasb etadi.





